

ERONDA ILK TARJIMACHILIKNING SHAKLLANISHI VA TARJIMASHUNOSLIKKA QO'SHGAN HISSASI

Asqarova Dilobar Saidikrom qizi

O'zDJTU o'qituvchisi

Telefon:(94)619 02 92

dilobarasqarova@uzswlu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Eronda ilk tarjima manbalarining shakllanishi uning tarjimashunoslikdagi ahamiyati haqida so'z yuritildi. Ushbu maqolani yozishdan maqsad Eron tarjimashunosligining qadimgi davrdan to hozirgacha bo'lgan davrdagi holati, tarjimadagi takomillashuv va uning tarjimadagi ahamiyatini o'rganishdan iborat.

Kalit so'zlar: ilk tarjimalar, forsha matnlar, sharq tarjimashunosligi, asliyat, ko'p tillilik.

Eronda tarjimachilik faoliyati qadimiy davrlardan boshlab shakllanib, turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi madaniy, ilmiy va adabiy aloqalarning rivojlanishida muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, qadimgi fors davlatchiligi hamda keyinchalik islom sivilizatsiyasi davrida tarjima jarayoni bilim almashinuvi vositasiga aylangan. Eronda ilk tarjimachilikning shakllanishi nafaqat amaliy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lib, balki u ilmiy yo'nalish — tarjimashunoslikning rivojiga ham zamin yaratgan. Tarjimonlar faoliyati orqali til, uslub va mazmun muammolari chuqurroq anglanib, tarjima jarayoniga nazariy yondashuvlar paydo bo'la boshlagan. Shu bois, Eronda tarjimachilik tarixining dastlabki bosqichlarini o'rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy tarjimashunoslikning shakllanish jarayonini tushunishda ham muhim manba hisoblanadi.

Fors tilida so'zlashuvchi jamiyatlardan tashqarida, ayniqsa, G'arb va Sharqda eronshunoslik qadim zamonlardan to hozirgacha rivojlanib bormoqda. Buni G'arb misolida amerikalik, eronlik, eronlik-amerikalik olimlarning ilmiy ishlarida ham kuzatishimiz mumkin. XVII asrda Yevropada fors tiliga qiziqish kuchayib bordi va



olimlar Erondagi qadimiy tillarni o'rganib, u yerdagi din va sivilizatsiyani o'rganib, qadimgi forscha matnlarni Yevropa tillariga tarjima qilganlar¹.

Eronda tarjimachilikning ilk shakllanish bosqichlari. Eronda tarjimachilik faoliyati qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ayniqsa, Ahamoniylar davrida turli xalqlar va tillar mavjud bo'lganligi sababli tarjimaga ehtiyoj yuqori bo'lgan. Davlat boshqaruvida ko'p tillilik muhim ahamiyat kasb etgan va rasmiy hujjatlar bir necha tillarda yuritilgan. Bu esa tarjimonlik faoliyatining ilk ko'rinishlarini yuzaga keltirgan. Keyinchalik, Sosoniylar davrida tarjimachilik yanada rivoj topdi. Bu davrda yunon, hind va boshqa tillardagi ilmiy va falsafiy asarlar pahlaviy tiliga tarjima qilina boshladi. Ayniqsa, tibbiyot, astronomiya va falsafa sohalaridagi bilimlar tarjima orqali keng tarqaldi².

Islom yoyilgan davrida tarjimachilikning rivoji. Islom kirib kelgach, Eronda tarjimachilik yangi bosqichga ko'tarildi. Arab tili ilm-fan va diniy til sifatida ustunlik qila boshladi. Shu sababli ko'plab asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Eronda faoliyat yuritgan olimlar bu jarayonda faol ishtirok etdilar. Bu davrda tarjima nafaqat matnni bir tildan ikkinchi tilga o'girish, balki uni tushuntirish, sharhlash va boyitish bilan ham bog'liq edi. Tarjimonlar asl matnni moslashtirish, izohlash orqali uni yangi madaniy muhitga olib kirganlar³.

Qadimgi fors (pors) tili Parfiya, Midiya va Ahamoniylar davrida o'zaro farqlarga ega edi. O'sha davrda Bobil va Elam yozuvlari ham xalqlar orasida rivoj topgan, shu sababdan Ahamoniylar podshohlari o'zlarining bir necha tilli xalq ekanliklaridan faxrlanardilar. Ushbu imperiyaning kengayishi, atrofdagi qo'shni davlatlar bilan aloqalarning mustahkamlanishi, shuningdek, qadimgi fors tilidagi o'zgarishlar Eronda boshqa turli tillarda so'zlashuvchilarning madaniyati bilan ularni yaqinlashtirdi, hamda boshqa tillardagi matnlarni tarjima qilish eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Eronga islom dini kirib kelganidan keyingi davrda ya'ni Sosoniylar davridan so'ng, o'rta asrlarda islom dini asta-sekin qo'shni mamlakatlarga ham tarqala boshladi. Keyingi yuz yillikda Qur'onning pahlaviy

¹ Talatoff K. Persian language, literature and culture. – New York: Routledge, 2015. – P. 22.

² Fernandez J.M. Translation, literature and cultural studies. – Rome: Universidad de Granada, 2017. – P 19-20.

³ عليرضا خانجان. تحليل انتقادی ترجمه. – تهران: آگه، – ۱۳۴۹. – ۲۶۰ ص

tiliga soʻzma-soʻz tarjimasini, koʻplab olimlarning asarlarini arab tiliga tarjima qilish ishlari kuchayib bordi. Moʻgʻullar istilosidan oldingi davrda yaʼni islom dini kirib kelganidan keyin Eron-islom sivilizatsiyasi degan tushuncha shakllandi va bu avvalgi sivilizatsiyalar ilmiy asarlarini arab tiliga tarjima qilinishiga turtki boʻldi. Safaviylar davrida Eronning Yevropa davlatlari bilan oʻzaro aloqalarining kengayishi Yevropa tillaridan tarjimalarning keng tarqalishiga olib keldi. Ayni oʻsha davrda Hindistonda Akbarshoh va uning vorislari hukmronlik qilayotgan paytda hind adabiyotining koʻplab muhim asarlari fors tiliga tarjima qilingan. Qojarlar davrida tarjima Eronga xorijiy harbiy delegatsiyalarning, xususan, fransuzlarning kirib kelishi bilan bogʻliq edi. Oʻsha davrda Tabrizda ilk bosmaxona tashkil etilib, bu harakat tarjima taraqqiyoti, tanlangan asarlarning arab tiliga tarjimasini bilan izohlanadi. Nasriddinshoh davrida dorilfunun tashkil topishi bilan tarjima sohasi yanada oʻsib, koʻplab oʻzgarishlarga uchradi. Amir Kabir dorilfununni tashkil qilgach, yevropalik muallimlar va tarjimonlarni taklif qilishi bilan birga, bir qancha yevropalik ilmiy, ziyoli insonlarni, chet tillari va turli fanlardan xabardor boʻlgan ziyoli eronlik muallimlarni ham ishga oldi. Oʻn toʻqqizinchi asrning oxirlarida ayrim oʻzgarishlar Eronda tarjima davrining uygʻonish davri boʻlishiga olib keldi. Eronga toshbosma usulining kirib kelishi bilan fors matbuoti va yangi vujudga kelgan kitob chop etish sanoati boshlandi va bularning bari Yevropa tillari bilan koʻproq tanishishga, tarjima ishlarining jonlanishiga sabab boʻldi. Shunday qilib, Eron yigirmanchi asrga katta oʻzgarishlar bilan qadam qoʻydi. Pahlaviylar hukmronligi davrida ham Eron madaniyati va adabiyotida tarjima muhim oʻrin tutgan. Bu davrda shohning modernizm va gʻarblashtirish siyosati taʼsirida gʻarbning bilim va tajribalarini oʻrganib, undan foydalanish maqsadida tarjima yanada koʻproq rivojlandi⁴. Oʻttizinchi yillarda Tehronda dunyoga mashhur asarlarni tarjima qilish maqsadida kitob tarjimasini va nashri uchun alohida kompaniya tashkil etildi. Shuningdek, oliy oʻquv yurtlari va ilmiy muassalar tomonidan xorijiy tillardan ilmiy va ixtisoslikka oid kitoblar

⁴ Сотиболдиева С.Р. XX аср форс романчилиги: Монография. – Тошкент: ТДШИ, 2015. – Б. 58-59.

tarjima qilindi. 1979-yil Islom inqilobidan so'ng, mamlakatda tarjimaga siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar o'z ta'sirini ko'rsatdi. Madaniyat va adabiy sohada ham islomiylashtirishga urg'u berilib, adabiy, islomiy xususan, shia madaniyatiga oid asarlarni tarjima qilish birinchi o'ringa qo'yildi. Bu tarjimalar asosan, falsafa, adabiyot, tarix va islom ilmlariga oid sohalarga qaratilgan edi⁵.

Xulosa qilib aytganda, Eronda tarjimachilik faoliyati qadimiy davrlardan boshlab shakllanib, turli tarixiy bosqichlarda izchil rivojlanib borgan. Ahamoniylar va Sosoniylar davridan boshlangan bu jarayon keyinchalik islom sivilizatsiyasi ta'sirida yanada yuksalib, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylangan. Ayniqsa, Gundishapur ilmiy markazi va islom davridagi tarjima harakatlari orqali turli xalqlarning ilmiy merosi bir hududdan boshqasiga uzatilgan. Shu jihatdan, Eronda ilk tarjimachilikning shakllanishi tarjimashunoslik fanining paydo bo'lishi va rivojlanishiga mustahkam zamin yaratgan. Bu tarixiy tajribalar bugungi kunda ham tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Asosiy adabiyotlar:

1. Fernandez J.M. Translation, literature and cultural studies. – Rome: Universidad de Granada, 2017. – 177 p.
2. Сотиболдиева С.Р. XX аср форс романчилиги: Монография. – Тошкент: ТДШИ, 2015. – 160 б.
3. Talatoff K. Persian language, literature and culture. – New York: Routledge, 2015. – 45 p.
4. علیرضا خانجان. تحلیل انتقادی ترجمه. – تهران: آگه، – ۱۳۴۹. – ۲۶۰ ص

II. Internet saytlari:

1. <https://tarjomehir.com.tarikhche-va-siereh-trajomeh-dar-iran>

⁵ <https://eshraghtrans.com.tarikhche-va-siereh-trajomeh-dar-iran>

